

**QISHLOQ XO'JALIGI EKINLARINI YETISHTIRISHDA SUV TEJAMKOR
TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ZARURIYATI.****Meyliyeva Shoxista Rustamovna***Assistant***Ro'zimurodov Alisher Baxtiyor o'g'li***Assistant***Maxmiyev Afro'zbek Dadaxon o'g'li***Talaba***Ulug'murodov Murodilla Bektemirovich***Talaba Qarshi davlat texnika universitet*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suvdan foydalanish hamda ushbu jarayonda suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish zaruriyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Suv, texnologiya, irrigatsiya, qishloq xo'jaligi, suv resursi, islohot, fermer, mintaq.*

KIRISH

Dunyoda yildan-yilga chuqurlashayotgan suv tanqisligi sharoitida suvdan foydalanishni rejalashtirish, hududlarning ekologik-meliorativ holatini yaqin va uzoq kelajakda barqarorligini ta'minlaydigan zamonaviy agromeliorativ suv tejamkor sug'orish texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, suv tanqisligini kamaytirish uchun suvni tejab foydalanishni, daryolar oqimini to'liq boshqarishni, irrigatsiya tizimlaridan foydalanishni va texnik ta'minotini takomillashtirishni hamda suv tejamkor usullarini qo'llash suv resurslarining tejalishiga olib keladi va bu borada salmoqli ilmiy izlanishlarni amalga oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi

Dunyo mamlakatlarida aholi sonining oshishi, oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojning ortganligi, sanoat ishlab chiqarishning kengayishi, iqlim o'zgarishi kabi omillar tufayli suv resurslariga bo'lgan talab yildan-yilga oshib bormoqda. Oqibatda, jahonning ko'p mintaqalarida suv resurslari tanqisligining tendensiyasi kuzatilyapti. Ma'lumki, butun jahonda qishloq xo'jaligi sohasi suvni eng ko'p ishlatuvchi sanaladi. Shuning uchun, butun jahon ilm ommasi qishloq xo'jaligida, xususan sug'oriladigan dehqonchilik ekin maydonlarida suvdan tejamli foydalanish, shu jumladan, suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etishni suv tanqisligini yumshatishning eng ustuvor yo'li sifatida ta'kidlashadi. Iste'mol qiladigan suv resurslarining 80 foizi qo'shni davlatlar hududida shakllanadigan O'zbekiston suv resurslaridan samarali foydalanish, ayniqsa oxirgi yillarda kuchayib borayotgan suv taqchilligini yumshatish maqsadida ekinlarni sug'orishning suv tejovchi tizimlarini keng joriy qilish va suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish yo'nalishida mintaq davlatlari orasida tashabbuskor bo'layotganini e'tirof etish joiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-noyabrdagi "2018–2019-yillar davrida irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi to'g'risida"gi, 2020-yil 11-dekabrdagi PQ-4919-son «Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora – tadbirlari to'g'risida» gi qarorlari, 2022-yil 1-martdagi PQ-144 son "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-fevraldagi PQ-3405-sonli "2018- yil mavsumida ekin maydonlarini suv bilan kafolatli ta'minlash va suv tanqisligini salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlari to'g'risida"gi 74-son qarorlari hamda boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu hisobot ishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Agrar sohadagi olib borilayotgan islohotlar natijasida suv resurslarini boshqarish va fermer xo'jaliklari o'rtasida suvdan foydalanish borasidagi munosabatlarini takomillashtirish, suvdan oqilona foydalanish, suv xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish, suvtejamkor texnologiyalarni qo'llashni rag'batlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, iqtisodiyotni barqaror o'sishi, ijtimoiy infratuzilmalarning rivojlanishi va aholi ehtiyojlarini inobatga olgan holda qishloq xo'jaligiga sarflanayotgan suv resurslarini tejash va tejamkorlikni ta'minlashda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash borasidagi yangicha yondashuvlarni amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan sanaladi. Ma'lumki, bugungi kunda suv tejovchi texnologiyalar (STT)ni qo'llash bo'yicha Braziliya (77% maydonga qo'llagan), Ispaniya (73%), Italiya (60%), Janubiy Koreya (60%), AQSh (56%), Saudiya Arabistoni (56%), Frantsiya (41%), Xitoy (41%) yetakchi mamlakatlar hisoblanadi. O'zbekistonda esa bor-yo'g'i 17 foiz yerda suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan.\

Ayni paytda mamlakatimizdagi 70 foizdan ziyod ekin maydonlari eski usulda sug'oriladi. Bunday sug'orish tizimi davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, "yerga nisbatan ham, suvga nisbatan ham vahshiylik"dir. Buni odamlar ongiga, madaniyatiga singdirish o'ta muhim. Shu bois, Prezidentimizning saylovoldi dasturida ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilib, 2030-yilga qadar respublikamizdagi sug'orma dehqonchilik qilinadigan barcha ekin maydonlarini to'liq suv tejaydigan texnologiyalarga o'tkazish, sohaga bozor mexanizmlarini keng tatbiq etish, bunday uskunalarni joriy etgan fermer va dehqonlarni rag'batlantirish mexanizmlarini yanada ko'paytirish choralari ko'rilishi belgilandi.

Umuman, mamlakatimizda oldingi yillarda boshlangan va o'z samarasini bergan tizim — suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha sa'y-harakatlar izchil davom ettirilmoqda. O'zbekistonda 2019-yildan boshlab suv tejovchi texnologiyalarni joriy etganlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi yo'lga qo'yilgani, jumladan, subsidiyalar ajratilayotgani katta samara berib, klaster tashkilotlari va fermerlarni rag'batlantirmoqda. Misol uchun, 2019–2022-yillarda suv tejovchi texnologiyalarni

joriy qilgan qishloq xo'jaligi korxonalariga jami 1 trillion 465 milliard so'm subsidiya ajratilgan. Subsidiyalar ajratish mexanizmlari yildan yilga takomillashtirib borilayapti.

2022-yildan esa suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga subsidiya ajratish tizimi raqamlashtirildi. Bu kabi yengillik va qulayliklar mazkur yo'nalishdagi ishlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, albatta. Suv tejovchi texnologiyalarning afzalligi ko'p. Avvalo, bu usul davlat byudjetiga ko'p yuk bo'lib tushmaydi, asosan, suv iste'molchilarining o'z mablag'lari hisobiga barpo etiladi. U tufayli nafaqat suv, balki mineral o'g'itlar, yonilg'i-moylash mahsulotlari, ishchi kuchi xarajatlari sezilarli darajada iqtisod qilinadi. Hosildorlik esa oshadi.

Mamlakatimizda hozirga qadar jami 473,5 ming gektar maydonda tomchilatib, 44,7 ming gektarda yomg'irilatib, 18 ming gektarda diskret, 133,9 ming gektar maydonda boshqa suv tejovchi sug'orish tizimlari joriy qilindi. 569 ming gektar ekin maydoni lazer uskunasi yordamida tekislandi. Natijada ularning qo'rsatkichi 1,2 million gektarga yoki sug'oriladigan umumiy maydonga nisbatan 28 foizga yetkazildi. Shu tariqa mavjud suv resurslaridan foydalanish samaradorligi yil sayin ortib bormoqda. Shu o'rinda yurtimizda, umuman, jahon qishloq xo'jaligida eng ommalashgan tomchilatib, yomg'irilatib hamda pulsar sug'orish usullariga batafsilroq to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi, nazarimizda. Tomchilatib sug'orish tizimi jahonning qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan ko'pgina mamlakatlarida keng qo'llaniladi. U jamoatchilik va ilmiy jihatdan intensiv texnologiya, deb tan olingan. Tomchilatib sug'orishda suv o'simlikning ildiz qatlamiga bir tekisda yetib boradi. Natijada dalaning ekin atrofi bir xil namlanadi. Tuproqda ortiqcha namlik yuzaga kelmaydi.

Bu sug'orish rejimida o'simlikning suvga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda suv beriladi. Mineral o'g'itlarni ham bevosita suvga qo'shib berish mumkin. Tuproq qotmasligi bois texnika bilan ishlov berishga zarurat tug'ilmaydi. Mavsum davomida har gektar maydon hisobiga 50–60 litr atrofida yonilg'i-moylash mahsulotlari tejaladi. Yil davomida beriladigan o'g'itlar uchun xarajatlar tomchilatib sug'orilganda 30 foizga kamayadi, vegetatsiya davrida beriladigan o'g'itlar uchun xarajatlar esa 50 foizgacha kamayadi. Ekinning o'g'itni o'zlashtirishi 90 foizdan oshadi.

Hozirda suvni tejamkorlik bilan sarflash nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda dolzarb masalaga aylangan. Chunki suv iste'moli yildan-yilga ortib bormoqda, suv zahiralari esa cheksiz emas. Bularning barchasi dunyoning aksariyat mamlakatlarida suv resurslarini boshqarishga eng yangi va yuqori samara beradigan texnologiyalarni jalb etish loyihalariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Aytish joizki, bu borada O'zbekistonda ham so'nggi yillarda katta ishlarga qo'l urilmoqda. Suv resurslaridan samarali foydalanish uchun sohaga yangi va tejamkor texnologiyalarni joriy etish bo'yicha jahonning ilg'or mamlakatlari bilan hamkorlikda loyihalar hayotga joriy etilmoqda. Bunga misol tariqasida Qashqadaryo viloyati Qamashi – Mirishkor kanalida suv resurslarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini keltirish mumkin. Bu tizimni joriy etish bo'yicha umumiy qiymati 18,2 milliard so'mga teng bo'lgan Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Avstraliyaning «Rubikon Water Pty Ltd» kompaniyasi o'rtasida shartnoma imzolandi. Loyihani amalga oshirish

natijasida jami 6,5 ming gektar yerlarning 43 million litrlik suvga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi. Mazkur shartnoma doirasida Qashqadaryo viloyati Qamashi– Mirishkor kanalining 13,8 km uzunlikdagi qismida jami 28 ta avtomatlashtirilgan suvni boshqarish shlyuzlari, ushbu kanaldan foydalanadigan fermer xo'jaliklari uchun o'lchov uskunalari, markazdan masofaviy boshqaruv dasturiy ta'minoti va fermerlar uchun mobil ilovalar joriy etiladi.

Xulosa. Sug'oriladigan yerlar hisobidan bog'dorchilik, uzumchilik va boshqa ko'p yillik daraxtzorlar hamda yengil tipdagi issiqxonalarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishda sug'oriladigan yerlar hisobidan bog'dorchilik, uzumchilik va boshqa ko'p yillik daraxtzorlar hamda yengil tipdagi issiqxonalarni tashkil etish katta amaliy ahamiyat kasb etib, mamlakatning iqtisodiy yuksalishini ta'minlab beradigan omillardan biridir. Fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilari uyushmalari suvdan foydalanish joylarida suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan majburiy tarzda jihozlash sharti bilan tashkil etiladi. Yer maydonlaridan foydalanishda suvni tejovchi texnologiyalardan - tomchilatib, yomg'irlatib, tuproq ostidan tomchilab sug'orish va boshqalardan foydalangan holda amalga oshirish suv resurslarining tejaliishiga va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6024-sonli 2020-yil 10-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 1- martda qabul qilingan "Qishloq xo'jaligida suvni tejayjigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-144-sonli Qarori.

3. Shoxojaeva Z. S. Qishloq xo'jaligida suvni tejovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari. Samarkand branch of Tashkent State.

4. Mamatov S.A. Ekinlarni sug'orish uchun tomchilatib sug'orish usulini qo'llashning afzalliklari. /Fermer xo'jaliklarida suv resurslaridan samarali va maqsadli foydalanishning dolzarb masalalari va muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. SANIIRI, Toshkent, 2009, 11-13 b.

5. Mamatov S. Sug'orish tarmog'i soz bo'lsa ekin parvarishida mashaqqat ham oz bo'ladi // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – 2010. – № 12. – S. 4-5.

6. NS Xushmatov, ZS Shoxojaeva. SUV RESURSLARINING AGRAR TARMOQNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGINI BAHOLASH. J.: Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. №3, Ctp.1121-1129